



XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 21-iyul

VII-11-66-11-155-K/25

Dang‘ara tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha 2025-yilning II choragi davomida tumanda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qaroriga asosan, tumanda joriy yilda quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

2025-yil 2-chorak yakuni bilan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar:

- sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 668,4 mlrd.so‘m yoki 105,6 foizga;
- xizmatlar hajmi 514,9 mlrd.so‘m yoki 113,1 foizga;
- qurilish ishlari hajmi 226,3 mlrd.so‘m yoki 105,6 foizga;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 1112,3 mlrd.so‘m yoki 108,2 foizga yetkazildi.

Budget daromadlari ijrosi bo‘yicha 2025-yil uchun 142,9 mlrd.so‘m prognoz belgilangan.

Yanvar-mart oylari uchun belgilangan 31,4 mlrd.so‘m prognoz ko‘rsatkichi chorak yakuni bo‘yicha 31,7 mlrd.so‘m yoki 101,0 foizga bajarildi.

Aprel-iyun oylari uchun belgilangan 35,8 mlrd.so‘m prognoz ko‘rsatkichi 2-chorak yakuni bo‘yicha 36,3 mlrd.so‘m yoki 101,4 foizga bajarildi.

Kambag‘al oilalar va kambag‘allik darajasini pasaytirish bo‘yicha:

2025-yilda 1551 ta (7105 ta a’zosi) kambag‘al oilalarni kambag‘allikdan chiqarish hamda kambag‘allik darajasini 4,9 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bugungi kun holatiga platformaga 4021 ta kambag‘al oilalar reyestri shakllantirilgan bo‘lsa, ularning 3739 tasiga (93 foiz) individual rejalar ishlab chiqilgan.

Aholi bandligini ta’minalash va ishsizlik darajasini kamaytirish:

2025-yilda 28,6 ming nafar ishsiz fuqarolarni bandligini ta’minalash orqali, ishsizlik darajasini 4,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bugungi kun holatiga 16834 nafar aholi bandligi ta’minaldi.

Tajribalar doirasida amalga oshirladigan ishlar.

“Sayxunobod” tajribasi asosida tumandagi mavjud 44 ta mahallalarda 21,22 tadan, jami 958 ta mikroloyihalarni amalga oshirish hisobiga 1916 nafar fuqarolar bandligi ta’minlandi.

Zarbdor tajribasi bo‘yicha 6 ta drayver loyihalar amalga oshirilmoqda.

G‘ijduvon tajribasi asosida 20 ta 2, 5 qavatlari vertikal “tepaga o‘suvchi” loyihalarni amalga oshirish orqali 415 nafar aholi bandligi ta’minlash rejalashtirilgan bo‘lib, amalda 11 ta loyihalarni amalga oshirish orqali 149 nafar aholi bandligi ta’minlandi.

Aholi orasidan xorijga tashkillashtirilgan tartibda ishga yuborish.

2025-yilda 165 nafar fuqarolarni xorijga ishga yuborish belgilangan. Bugungi kun holatiga 197 nafarga yaqin fuqarolar xorijga ishga yuborilgan.

Elektr ta’mnoti yo‘nalishida:

«Doimobod», «Taypoq», «Katta turk», «Katta boybuch»a, «Targ‘ova» MFY hududlariga 2 tadan jami 10 ta transformator punkti, 100 dona beton tayanch, 3 km tarmoq tortish belgilangan, hozirda «Doimobod» MFYga 34 dona yangi beton tayanchlar va 2 dona yangi transformator punkti o‘rnatildi. «Taypoq» MFYga 34 dona yangi beton tayanchlar va 2 dona yangi transformator punkti o‘rnatildi, 0,7 km masofada yangi tarmoq tortildi. «Katta turk» MFYga 38 dona yangi beton tayanchlar o‘rnatildi, «Katta boybuch»a MFYga 31 dona yangi beton tayanchlar va 2 dona yangi transformator punkti o‘rnatildi, 0,6 km masofada yangi tarmoq tortildi, «Targ‘ova» MFY hududiga 24 dona beton tayanch o‘rnatildi.

Ko‘p kvartirali uy-joylar qurilishini tashkil qilish.

Tuman hududida 2025-yil yakuniga qadar 13 ta, 448 xonardonli ko‘p qavatlari uy-joylar qurib bitkazilishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda 7 ta, 238 xonardonli uylarda qurilish ishlari olib borilmoqda.

Tuman aholi punktlari ko‘chalari holatini yaxshilash:

2025-yil yakuniga qadar tuman hududidagi 12,2 km ichki xo‘jalik yo‘llarini shag‘allash va 6,925 km uzunlikdagi mavjud qoplamlarni chuqur chanoqli ta’mirlash rejalashtirilgan. Hozirgi kunda 1,15 km ichki yo‘llarda qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilib, 0,7 km ichki yo‘llar shag‘allandi, 0,450 km ichki yo‘llar asfaltlandi.

Xonadonlarni ichimlik suvi tarmog‘iga ulash:

2025-yil yakuniga qadar tuman hududidagi 250 ta aholi xonadonlarini ichimlik suvi tarmog‘iga ulash uchun 7,3 km tarmoq tortish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda 230 ta aholi xonadonlari ichimlik suvi tarmog‘iga ularib, belgilangan choraklik rejani 184 % ga bajarilshiga erishildi. Ichimlik suvi tarmog‘iga ulash ishlarini ortig‘i bilan bajarish choralarini ko‘rilmoxda.

Markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi

Tumanda jami 26800 ta ichimlik suvi iste’molchilar mavjud. 2025-yil yakuniga qadar, tuman aholisini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini 91

foizga yatkazish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda tuman aholisining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darjasи 89 % ni tashkil etmoqda.

Tumanda Elektr tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish rejasi.

2025-yil yakuniga qadar jami 3 km elektr tarmog'i tortish rejalashtirilgan, shundan yanvar-iyun oylari davomida 1,6 km tarmoq tortish ishlari amalga oshirildi.

O'rnatiladigan va almashtiriladigan transformatorlar.

2025-yil yakuniga qadar tumanda 10 ta elektr tarsmsformatorlar o'rnatish rejalashtirilgan. Bugungi kunga 6 ta elektr transformatrlari o'rnatilishi ta'minlandi.

Tumanda tabiiy gaz tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ta'mirlash bo'yicha

Tumanda 130 dona GRPni mukammal va joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, ikkinchi chorak yakunlari bo'yicha 4 dona GRPni mukammal va 18 dona joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda 24 ta MFY hududida 126 dona GRPning taftishdan o'tkazish ishlari amalga oshirilmoqda. Tumanda suyultirilgan gaz balonlari bilan ta'minlanadigan aholi soni 22300 tani tashkil qilib, 2025-yil yakuniga qadar jami 3240 tonna suyiltirilgan gaz yetkazib berish rejashtirilgan. Hozirgi kunda tuman aholisini belgilangan reja grafikka asosan, suyiltirilgan gaz ballonlari bilan ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasida:

2025-yil uchun tumanda boshoqli don ekish rejasi 8500 hektar bo'lib, shundan 22300 tonna boshoqli don hosili yetishtirish rejalashtirilgan. Bugungi kunga 24350 tonna boshoqli don yig'ib olinib reja 101,0 % ga bajarildi.

Tumandagi eskirgan, kam hosilli bog'larni o'rniga, 2025-yilda yangi intenvsiv bog' va tokzorlar barpo etish uchun 60 hektar rejalashtirilgan. 40 hektar eskirgan bog'lar o'rniga yangi bog' barpo qilindi, 20 hektari rekonstruksiya qilindi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrdagi "Qishloq xo'jaligi maydonlaridagi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-465-sonli qaroriga muvofiq, dala chetlari, kanallar, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining atroflaridagi maydonlarda, shuningdek aholi tomorqalari, xonadonlar va ko'p qavatli uylar oldi hamda mahallaning ichki ko'chalaridagi yer maydonlarida "Bir hudud - bir mahsulot" tamoyili asosida serdaromad qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va bunda, sizot suvi yaqin yerkirada olcha, olxo'ri, behi, jiyda, oshqovoq, supurgi, shirin jo'xori, malina, suvi tanqis yerkirada qizilmiya, uzum, bodom, anor, moyli (kunjut, raps) va dukkakli (zira, no'xat, loviya, mosh) ekinlarga ustuvor e'tibor qaratish vazifasi belgilangan. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida, tumanda hozirgi kungacha 207 hektar dala chetlariga 167 ming dona 502 hektar kollektor va drenaj atroflariga 451 ming dona mevali va manzarali ko'chatlar ekildi.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimi Sh.Tojixakimovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Dang‘ara tuman hokimining o‘rnibosarlariga:

- tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida “mahallalar yettiligi” faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilishini ta’minalash va nazoratni kuchaytirish;
- “mahalla yettiligi” vakillari ishtirokida aholi bilan doimiy muloqotlarni tashkil etib borish;
- tuman hududida “Sayxunobod”, “Uychi”, “G‘ijduvon”, “Zarbdor” tajribalari doirasida tegishli ishlarni amalga oshirilishini jadallashtirish va samaradorligini oshirish, aholi tomonidan tomorqa va uy xo‘jaliklardagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish orqali daromadlarini oshirish, aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni o‘tkazilishini ta’minalash;
- aholi muammolarini samarali hal etish, ma’naviy muhitni saqlash, ma’naviy -ma’rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliq inspektori va ijtimoiy xodimning o‘z vazifalarini bajarishda hamkorligini ta’minalash;
- aholini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan budjet va boshqa mablag‘larni maqsadli va manzilli yo‘naltirish, bu borada nazoratni kuchaytirish;
- ishsiz fuqarolarning bandligini ta’minalash, kredit ajratish masalalarida fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mahallalarda bandligi ta’milanmagan yoshlar va xotin- qizlarni oilaviy hamda xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka jalb etish orqali bandligini ta’minalash choralarini ko‘rish;
- “mahalla yettiligi” bilan birgalikda “Temir daftari”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” ro‘yxatida turgan fuqarolarning muammolarini o‘z vaqtida hal etish choralarini ko‘rish;
- qarovsiz, nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta’minalash;
- sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni saqlash, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni targ‘ib qilish, ma’naviy-ma’rifiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini yanada mustahkamlash maqsadida mas’ullar bilan birgalikda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o‘tkazilishini ta’minalash;
- aholini tomorqadan unumli foydalanish, oilaviy tadbirkorlik, kichik sanoat va xizmatlarni yo‘lga qo‘yish orqali, aholini daromadli qilish choralarini ko‘rish;
- fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarni o‘z vaqtida o‘rganib chiqish, aniqlangan muammolarni qonuniy hal etish choralarini ko‘rish;
- “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida o‘tkaziladigan tadbirlarga fuqarolarni keng jalb qilish orqali atrof-muhit tozaligi hamda ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH